

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OT SO'Z TURKUMINING MORFOLOGIK VA LEKSIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI

*Guliston davlat pedagogika instituti Tillarni o'qitish fakulteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz
tili yo'nalishi 3-bosqich 26-23-guruh talabasi*

Qilichova Shohista

shohistaqilichova16@gmail.com

Tel: +998882678804

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida ot so'z turkumining morfologik va leksik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida otlarning qo'shimcha tizimi, ko'plik va egalik kategoriyalari, kelishik shakllari, sanaladigan va sanalmaydigan otlar, shuningdek so'z yasash jarayonlari o'rganildi. O'zbek tilining agglutinatib tabiati va ingliz tilining analitik tuzilishi asosida ikki til o'rtasidagi strukturaviy farqlar aniqlandi. Tadqiqot natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilida grammatik ma'no asosan affikslar orqali ifodalansa, ingliz tilida yordamchi so'zlar va so'z tartibi muhim rol o'ynaydi. Natijada ushbu qiyosiy tahlil til tipologiyasi va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.*

Ingliz va o'zbek tillarida ot so'z turkumi har ikkala til tizimida ham markaziy grammatik birlik hisoblanadi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mazkur tillarda otlarning semantik vazifasi o'xshash bolib, ular shaxs, predmet, hodisa va mavhum tushunchalarni ifodalaydi. Biroq morfologik tuzilishi jihatidan sezilarli farqlar kuzatiladi. O'zbek tili agglutinatib til sifatida grammatik ma'nolarni affikslar orqali ifodalaydi. Bir so'z tarkibida bir nechta grammatik kategoriya ketma-ket qo'shimchalar yordamida berilishi mumkin masalan, kitoblarimizdan. Ingliz tili esa analitik tuzilishga ega bo'lib, grammatik munosabatlar ko'pincha yordamchi so'zlar va qat'iy so'z tartibi orqali ifodalanadi: from our books. Kelishik kategoriyasi o'zbek tilida morfologik shakllar orqali aniq ifodalansa, ingliz tilida bu munosabatlar asosan predloglar yordamida beriladi. Egalik kategoriyasida ham o'zbek tilida affikslar -ning, -im, -imiz faol ishlatilsa, ingliz tilida 's konstruktsiyasi va possessive olmoshlar qo'llanadi.

Ko'plik kategoriyasida ikkala tilda ham umumiylik mavjud bo'lsa-da, ingliz tilida noto'gri shakllar child-children uchrashi tizimning murakkabligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ingliz tilida countable-sanaladigan va uncountable-sanalmaydigan otlar grammatik jihatdan qat'iy farqlanadi, o'zbek tilida esa bu semantik xarakterga ega.

Kalit so'zlar: *ot so'z turkumi, morfologik xususiyatlar, leksik xususiyatlar, mavhum otlar, qiyosiy tahlil, agglutinatib til, egalik kategoriyasi.*

KIRISH

Tillar o'rganish va kelib chiqishiga ko'ra birlashtirish uchun tillar oilalarga bo'linadi. Tillar oilasi - kelib chiqishi jihatidan o'zaro qarindosh, tuzilishi va ayrim leksikgrammatik xususiyatlariga ko'ra o'xshash tillar majmui. Tillar oilasini tashkil etuvchi tillarning bir-biriga

yaqin yoki uzoq qarindoshligi tilshunoslikda qiyosiytarixiy metod orqali belgilanadi. Oila tushunchasi terminologik jihatdan hajman o'zgaruvchandir. Tillar oiliasi: Qadimda bir tildan kelib chiqqan, yaqin dialektlar guruhidn chiqqan tillar majmuasi. Eng yirik oilalar: Hind-Yevropa, Xitoy-Tibet, Niger-Kongo, Oltoy va boshqalar. Turkiy tillar oilasi-Osiyo va Yevropaning keng hududlarida tarqalga, kelib chiqishi bir bo'lgan 40 ga yaqin qardosh tillar jamlanmasidir. Turkiy tillar- hozirgi va qadimgi turkey ellar va elatlarning tillari. Asosan, O'zbekistan, Turkiya, Ozarbayjon,Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Eron, Tojikiston, shuningdek, Bolgariya, Ukraina va boshqa bir qancha mamlakatlarda tarqalgan.Hozirgi jahonda tillarning umumiy soni 2500 tadan 5000 tagacha deb taxmin qilinadi. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib bu oilaning Qarluq guruhi tarkibiga kiradi. O'zbek tilida so'z turkumlari muhim ahamiyat kasb etadi.So'zlar lug'aviy ma'nolari morfologik belgilari va gapda bajaradigan sintaktik vaziflariga ko'ra farqlanuvchi turli guruhlarga bo'linadi.So'zlarning lug'aviy va grammatik jihatidan farqlanishiga ko'ra bunday guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deyiladi. So'z turkumlari o'rganiladigan tilshunoslik bo'limi esa morfologiya deyiladi. Til tizimida so'z turkumlari muhim o'rin tutadi va ular orasida ot so'z turkumi markaziy birlik hisoblanadi. Har bir tilning grammatik qurilishi uning tipologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, bu xususiyatlar otlarning shakllanishi va qo'llanilishida yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek tili agglutinatив tillar guruhiga mansub bo'lsa, ingliz tili analitik tillar sirasiga kiradi. Bu esa otlarning morfologik va sintaktik ifodalanishida sezilarli farqlarni yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi-ingliz va o'zbek tillarida otlarning morfologik hamda leksik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish va ularning o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism. O'zbek tili agglutinatив til hisoblanadi. Bu tipologik xususiyat grammatik ma'nolarning asosan affikslar yordamida ifodalanishini bildiradi. O'zbek tilida otlar ko'plik egalik va kelishik kategoriyalariga ega bo'lib, ular qo'shimchalar orqali ifodalanadi⁶². Olimlarning aksariyati,jumladan,o'zbek tilshunosligida A.G'ulomov, M.Asqarova kabi olimlar otlarning narsa-buyum ma'nosini bildirishini uning bosh mezon deb hisoblanadi. Otlar obyektiv borliqdagi narsalarning substansiyasini anglatadi.

Ot nom bildiruvchi so'z turkumi bo'lib, shaxs ,narsa , joy ma'nolarini anglatadi va kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'ladi.Otlar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma otlarga bo'linadi. *Masalan: tosh-sodda ot, qo'lqop - qo'shma ot.* Ingliz tilida: *house-oddiy ot, sunlight - qo'shma ot.* Nutqning deyarli boshqa barcha qismlaridan olingan so'zlar, shuningdek iboralar va hatto gaplar ham ba'zan ot ma'nosida ishlatiladi va shunga mos ravishda tahlil qilinishi kerak. Ikki yoki undan ortiq so'z bitta nomni ifodalasa yoki odatda shunday ishlatilsa, ularning barchasi bir butun ot sifatida tahlil qilinishi mumkin. Otlar besh turga bo'linadi: atoqli, turdosh, aniq, mavhum va jamlovchi otlar. Atoqli ot -alohida shaxs yoki narsaning nomidir. *Masalan: Ali.* Turdosh ot -umumiy turdagi nomdir. *Masalan: erkak, bola, muhandis.* Jamlovchi

⁶² M.Asqarova , A.G'ulomov "Hozirgi o'zbek nazariy tili"(1960-1961).

ot - birlik shaklda bo'lsa ham, bir xil turdagi bir nechta obyektни bildiradi. *Masalan: guruh, oila.* Mavhum ot -sifat, harakat yoki holatni bildiradi. *Masalan: sukut, din.*

Otlarning turlari:

O'zbek tilida	In English language
Atoqli otlar Toshkent	Proper nouns London
Turdosh otlar Kitob	Common nouns Book
Aniq otlar Stol	Material nouns Table
Mavhum otlar Baxt	Abstract nouns Happiness
Jamlovchi otlar Jamoa	Collective noun Team

Tilshunos olim Quirk nazariyasiga ko'ra, ingliz tilida otlar cheklangan flektiv kategoriyalarga ega bo'lib, asosan son va qaratqich kelishigi bilan ifodalanadi. Aksincha, o'zbek tilida otlar agglutinatив tizimga ega bo'lib, grammatik ma'nolar -son, egalik va kelishik -keng ko'lamli qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Ushbu tadqiqot ushbu strukturaviy farqlarni morfologik va tipologik jihatdan qiyoslashni maqsad qiladi. Ingliz tilida otlar ikki asosiy grammatik kategoriya bilan ifodalanadi: son va qaratqich kelishigi. Ko'plik shakli odatda -s/-es qo'shimchalari orqali yasaladi, biroq ayrim notekis shakllar ham mavjud *masalan: child-children*. Qaratqich kelishigi esa -'s qo'shimchasi orqali ifodalanadi. Ingliz tilida grammatik munosabatlar ko'pincha flektiv emas, balki analitik vositalar orqali - ya'ni of, to, from kabi predloglar va qat'iy so'z tartibi yordamida ifodalanadi. O'zbek tili agglutinatив til bo'lib, otlarga bir nechta qo'shimchalar qo'shish orqali grammatik ma'nolar ifodalanadi. *Masalan: kitob + lar-ko'plik, kitob + im-egalik, kitob + dan-chiqish kelishigi, kitob + lar + imiz + dan-ko'plik + egalik + kelishik.* Bu holat o'zbek tilining qatlamli qo'shimchalar tizimiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ingliz tilida ko'plik asosan -s/-es qo'shimchalari orqali yasaladi. Ayrim hollarda notekis shakllar ham uchraydi. O'zbek tilida esa ko'plik doimiy ravishda -lar qo'shimchasi orqali hosil qilinadi va deyarli istisnalar mavjud emas. Ingliz tilida egalik 's qo'shimchasi yoki of predlogi orqali ifodalanadi. *Masalan: the boy's book, the roof of the house.* O'zbek tilida esa egalik grammatik jihatdan -im, -ing, -i kabi qo'shimchalar va -ning qaratqich kelishigi orqali ifodalanadi.

Ingliz tilida kelishik tizimi deyarli yo'qolgan bo'lib, faqat qaratqich kelishigi saqlanib qolgan. Grammatik munosabatlar asosan predloglar va so'z tartibi orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa to'liq kelishik tizimi mavjud bo'lib, unda: tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish

kelishiklari morfologik qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Ingliz tilida otlar *-ness, -tion, -ment, -ity* kabi qo'shimchalar orqali yasaladi. O'zbek tilida ham unumli yasovchi qo'shimchalar mavjud: *-lik, -chi, -kor*. Biroq o'zbek tilida so'z yasalishi ko'proq qat'iy affiks tizimi asosida amalga oshadi. Tilshunoslar otlarni tub *sodda* va *yasama* turlarga ajratadilar. Yasama otlar: affikslar orqali yoki boshqa so'z turkumlaridan otlashish *nominalizatsiya* orqali hosil qilinadi. Bu jarayon o'zbek tilining morfologik jihatdan boy va tartibli tizimga ega ekanligini ko'rsatadi. Olimlar otlarni yasama va tub otlarga ajratishadi. Yasama otlar affikslar yordamida, shuningdek, boshqa so'z turkumlaridan otlashish orqali hosil bo'lishi o'rganiladi.

Ot yasovchi qo'shimchalar:

O'zbek tilida	misol	In english	example
-chi,	ishchi	-er,	teacher
-kor	sholikor	-or,	actor
-gar	zargar	-ness,	happiness
-dor	mulkdor	-tion,	action
-boz	dorboz	-sion,	decision
-xon	kitobxon	-ity,	ability
-soz	soatsoz	-ment,	development
- (u)vchi	quruvchi	-ship,	friendship
- ham	hamsuhbat	-hood,	childhood
-lik	shaharlik	-	

Qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek tillaridagi ot tizimlari o'rtasida asosiy tipologik farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Ingliz tilidagi otlar cheklangan flektiv o'zgarishlarga ega bo'lib, grammatik munosabatlarni ifodalashda asosan sintaktik va analitik tuzilmalarga tayanadi. O'zbek tilidagi otlar esa agglutinatsiya orqali boy morfologik belgilanish tizimiga ega. Ushbu farqlar ingliz tilining analitik xususiyatga, o'zbek tilining esa agglutinatativ xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi, ayniqsa otlarning morfologik tizimi misolida bu aniq ko'rinadi. Zamonaviy tilshunoslikda grammatik kategoriyalar tizimi tilning ichki tuzilishini va uning funksional imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday kategoriyalardan biri - rod *gender* kategoriyasi bo'lib, u otlarning jinsiy belgilanishi va referentning biologik yoki ijtimoiy jinsiga munosabatini ifodalaydi. Turli tillarda rod kategoriyasi turlicha namoyon bo'ladi. Ayrim tillarda *masalan, rus, nemis tillarida* rod grammatik kategoriya sifatida shakllangan bo'lib, otlar morfologik jihatdan erkak, ayol va o'rta jinslarga ajratiladi. Ingliz tilida esa rod kategoriyasi asosan semantik va pronominal vositalar orqali ifodalanib, u tabiiy-*natural* gender tizimi sifatida talqin qilinadi. Rod *gender* kategoriyasi-til tizimida shaxs va jonli mavjudodlarning biologik jinsini *erkaklik-ayollik* va

grammatik jihatdan jinsga ajralishini ifodalovchi tipologik kategoriya bo'lib, u ikki qismdan iborat: Real *biologik* rod-mavjudodlarning haqiqiy jinsini bildiradi. Formal *grammatik* rod-so'zlarning grammatik belgilariga ko'ra jins guruhlariga ajratiladi. Real rod- shaxs, hayvon, jonli mavjudodlarning tabiiy, biologik jinsini bildiradi:erkak-*male* yoki ayol-*female* Real rod *biological gender* ingliz tilida leksik usul bilan ifodalanadi.

A)Leksik-semantik juftliklar *erkak-ayol*

Erkak-male	Ayol-female
Ota-father	Ona-mother
Er-husband	Xotin-wife
O'gil-son	Qiz-doughter

Hayvonlar jins juftliklari:

xo'roz-rooster	Tovuq-hen
Bull-buqa	Cow-sigir

Formal rod *Grammatical gender*

Formal rod-tilning morfologik va sintaktik tizimi asosida so'zlarning grammatik grurhlarga ajralishi.Hozirgi ingliz tilida formal rod yo'q, faqat olmoshlarda saqlangan:

u-he, male-erkak
u-she,female-ayol
u-it,neytral

Morfologik gender markerlari *suffikslar*

Ingliz tilida jinsi morfologik yo'l bilan ko'rsatish juda kam, birq mavjud:

Ayollik suffikslar

-ess → actress,hostess,lioness

-eine\ -ina → hero,heroine

Sintaktik gender marker

Ingliz tilida jins neytral bo'lgan otlarga jinsini sintaktik yo'l bilan qo'shish mumkin:

Male doctor-female doctor

Boyfriend- girlfriend

Personifikatsiya *jonlashtirish* -stilistik rod. Ingliz tilida jonsiz va mavhum otlar she yoki he bilan jonlantirilishi mumkin, lekin bu grammatik emas,uslubiy hodisa:

odatiy jonlantirishlar, She-country,nature,moon – u-ona tabiat, oy bular o'zbek tilida ayollikka xos ma'noni ifodalaydi. He-sun,ocean,time - u- quyosh, ocean, vaqt bular esa erkaklikka xos ma'nolarni bildiradi. O'zbek tilida rod kategoriyasi yo'q.

O'zbek tilida: Grammatik rod yo'q. U-ham erkak,ham ayol jins faqat leksik darajada ifodalanadi. *Ism orqali: Anvar\Salima* Otlarga xos artikl kategoriyasi asosan ingliz tili kabi chet

tillariga tegishli bo'lib, o'zbek tilida grammatik kategoriya sifatida mavjud emas. Artikl -ot oldidan kelib, uning aniqlik darajasini ifodalovchi yordamchi birlik hisoblanadi. Ingliz tilida artikl tizimi uch asosiy turga bo'linadi. Birinchisi -noaniq artikl bo'lib, "a" va "an" shakllarida qo'llanadi. Ular odatda sanaladigan, birlikdagi va nutqda birinchi bor tilga olinayotgan otlar bilan ishlatiladi hamda umumiy yoki noma'lum predmetni anglatadi. Semantik jihatdan "biror", "qandaydir" kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ikkinchi tur - aniq artikl bo'lib, "the" shaklida namoyon bo'ladi. Ushbu artikl suhbat ishtirokchilariga oldindan ma'lum bo'lgan yoki kontekst orqali aniqlangan otlar bilan qo'llanadi. Uchinchi holat esa artiklning qo'llanmasligi. Bu ko'proq umumiy ma'nodagi ko'plik otlar, sanalmaydigan otlar hamda atoqli otlar bilan kuzatiladi. O'zbek tilida artikl kategoriyasi mavjud bo'lmaganligi sababli, uning funksiyasi ko'pincha kontekst yoki "bir", "shu", "o'sha" kabi leksik vositalar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, ingliz tilida artikllar otlarning son va sintaktik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq holda qo'llanadi. Ingliz tilida gender va artikl kategoriyalari ot tizimining muhim komponentlari hisoblanadi. Gender kategoriyasi asosan pronominal tizim orqali ifodalanib, referentning tabiiy jinsini ko'rsatadi. Artikl esa referensial aniqlik va noaniqlikni belgilovchi determinativ vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbek tilida esa bu kategoriyalar grammatik jihatdan shakllanmagan bo'lib, ularning funksiyasi kontekstual va leksik vositalar orqali amalga oshiriladi. Bu farq ingliz va o'zbek tillarining tipologik tafovutini yaqqol namoyon etadi.

Tadqiqot uchun ingliz yozuvchisi George Orwellning "Animal Farm" asari tanlandi. Ushbu asar til jihatdan soddaga, lekin semantik jihatdan boy bo'lib, unda turli turdagi otlar keng qo'llanilgan. Mazkur bobda ingliz yozuvchisi George Orwell qalamiga mansub Animal Farm asari materiallari asosida ot so'z turkumining lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida asar matnidagi olingan ot birliklari semantik, morfologik va funksional jihatdan o'rganilib, ularning ingliz va o'zbek tillaridagi ifodalanish usullari qiyosiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi. Asarning til jihatdan soddaligi bilan birga, semantik jihatdan boyligi undagi otlarning turli qatlamlarda namoyon bo'lishiga imkon yaratadi. Xususan, konkret va obstrakt otlar, atoqli va turdosh otlar hamda sanaladigan va sanalmaydigan birliklar keng qo'llanilganligi kuzatiladi. Bu esa mazkur asarni lingvistik tahlil uchun qulay material sifatida tanlashga asos bo'ladi. Tahlil davomida otlarning kontekstual ma'nosi, ularning tarjimada berilish xususiyatlari, shuningdek, artikl va gender kabi ingliz tiliga xos grammatik kategoriyalarning o'zbek tilida qanday ifodalanishi aniqlanadi. Shu orqali ikki til tizimi o'rtasidagi tipologik farqlar ilmiy asosda yoritiladi. Bu asarda hayvonlar ko'pincha "it" ifodalanadi. Ba'zan personajlar insoniylashtirilganda "he\she" ishlatiladi. Asarda berilgan otlar ya'ni hayvon nomlari ijtimoiy tushunchalar bilan ifodalanadi.

	Inglizcha	O'zbekcha	Ot turi	Artikl	Gender
	animal	hayvon	concret e	an	it

	man	odam	concret e	a	he
	farm	ferma	concret e	the	it
	pig	cho'chqa	concret e	the	it
	power	hokimyat	abstrac t	the	it
	freedom	erkinlik	abstrac t	-	it
	barn	ombor	concret e	the	it

“Animal Farm” asari asosida olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko’rsatadiki, ingliz tilida otlar artikl, sanalish va pronominal tizim orqali aniq grammatik belgilarga ega. O’zbek tilida esa bu kategoriyalar asosan qo’shimchalar va kontekst yordamida ifodalanadi. Konkret otlar ikki tilda ham o’xshash tarzda tarjima qilinsa, abstrakt otlarda semantik yuklama yanada chuqurroq namoyon bo’ladi. Shuningdek, ingliz tilida gender kategoriyasi muhim rol o’ynasa, o’zbek tilida u neytral xarakterga ega. Bu esa ikki tilning tipologik farqlarini yaqqol ko’rsatadi.

“Asarda qo’llanilgan otlar semantik jihatdan tahlil qilinganda, ularning nafaqat leksik ma’nosi, balki kontekstual va ramziy mazmuni ham muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Xususan, ‘animal’, ‘farm’ kabi konkret otlar metaforik ma’no kasb etib, jamiyat va davlat timsoli sifatida namoyon bo’ladi. ‘Freedom’, ‘power’ kabi abstrakt otlar esa asarning ideologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, atoqli otlar simvolik xarakterga ega bo’lib, ular orqali muallif tarixiy va siyosiy jarayonlarni badiiy ifodalaydi. Animal Farm asarida ramziy obrazlar *symbolic images/characters* - bu oddiy qahramonlar emas, balki jamiyat, siyosiy tizim va g’oyalarni ifodalovchi badiiy belgilar hisoblanadi. Ilmiy tahlilda buni “allegorik semantika” deb ham yuritiladi.”Animal Farm” da otlar ramziy ma’no ham beradi.

Napoleon-kuch va nazorat ramzi

Windmill-rivojlanish niqobi

Animals-jamiyat

Farm-davlat

dogs-zo’ravon kuch

sheep-ko’-korona omma

Freedom-erkinlik

Pigs-hukmron sinf

“Animal Farm” asarida ramziy obrazlar allegorik tizim asosida qurilgan bo’lib, har bir qahramon yoki predmet real hayotdagi siyosiy va ijtimoiy hodisalarning metaforik ifodasi sifatida xizmat qiladi. Ferma-davlat modeli, hayvonlar -xalq, cho’chqalar esa hukmron elita

sifatida talqin qilinadi. Bu ramzlar orqali muallif totalitar tizimning shakllanishi va rivojlanishini badiiy tarzda ifodalaydi. "Animal Farm" asari misolida otlarning nafaqat grammatik, balki semantik va stilistik ahamiyati ham katta ekanligi aniqlandi. Asardagi otlar orqali muallif jamiyat va siyosiy tizimni ramziy tarzda tasvirlaydi. Tadqiqot natijasida shuni aytish mumkinki, ingliz va o'zbek tillarida ot so'z turkumi umumiy funksiyaga ega bo'lsa-da, ularning ifodalanish usullari farq qiladi. Ingliz tilida artikl va sanalish kategoriyasi muhim bo'lsa, o'zbek tilida qo'shimchalar tizimi rivojlangan. Ingliz tilida gender va article kategoriyalari ot tizimining muhim komponentlari hisoblanadi. Gender kategoriyasi asosan pronominal tizim orqali ifodalanib, referentning tabiiy jinsini ko'rsatadi. Article esa referensial aniqlik va noaniqlikni belgilovchi determinativ vosita sifatida xizmat qiladi. O'zbek tilida esa bu kategoriyalar grammatik jihatdan shakllanmagan bo'lib, ularning funksiyasi kontekstual va leksik vositalar orqali amalga oshiriladi. Bu farq ingliz va o'zbek tillarining tipologik tafovutini yaqqol namoyon eta Ingliz tilida gender va article kategoriyalari otlarning grammatik tizimida muhim o'rin egallaydi. Gender kategoriyasi orqali jinsiy farqlash amalga oshirilsa, artikllar yordamida aniqlik va noaniqlik ifodalanadi. O'zbek tilida esa bu kategoriyalar grammatik jihatdan mavjud emas va ularning vazifasi kontekst yoki qo'shimcha so'zlar orqali beriladi. Bu esa ikki til tizimi o'rtasidagi muhim tipologik farqlardan biridir.

REFERENCES:

- 1.Quirk R, Greenbaum S, Leech G, Svartvik, J. A comprehensive grammar
2. of the English language. London: Longman 1985 -372 p
- 3.G. Orwell,Animal Farm. London: Secker and Warburg 1945-92p
- 4.R.Murphy, English Grammar in Use. Cambridge University Press 2019-393p
- 5.D.CrystalD, The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press. 2003-506p
- 6.<https://www.britannica.com> (English grammar and literature sections)
- 7.<https://scholar.google.com> (linguistic research articles)